


«TASDIQLAYMAN»

Jizzax viloyat hokimi  
o'rinbosari

  
B. Nazarov  
2022 y.



«KELISHILDI»

Jizzax viloyat qurulish  
Bosh boshqarmasi boshlig'i

  
M. Tursunov  
2022 y.



«KELISHILDI»

Jizzax viloyati hokimligi " Yagona  
buyurtmachi xizmati" Injiniring  
kompaniyasi direktori

  
X. Xasanov  
2022 y.



«KELISHILDI»

Jizzax viloyat xalq ta'limi  
boshqarmasi boshlig'i

  
D. Sadriddinova  
2022 y.



**Forish tumani "Arishli" MFY Do'stlik mahallasidagi 15-maktab 2-filialini  
rekonstruksiya qilish  
Ishchi loyihasini ishlab chiqish uchun  
LOYIHA TOPSHIRIG'I**

Jizzax - 2022 yil

T/r	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Obyektning nomi	Forish tumani "Arishli" MFY Do'stlik mahallasidagi 15-maktab 2-filialini rekonstruksiya qilish (24-o'rinli filial qurish)
2	Qurilish joyi	Jizzax viloyati Forish tumani
3	Buyurtmachi	Jizzax viloyat xokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injineriing kompaniyasi
4	Ishlab chiqish uchun asoslar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Rayosati majlisining 2022 yil 15-martdagi 40-sonli Bayoni.
5	Qurilish turi	Yangi qurilish
6	Moliyalashtirish manbai	Respublika byudjeti.
7	Qurilishni taxminiy bahosi mln.so'm	520,0 mln.so'm
8	Loyiha tashkiloti - bosh loyihachi nomi	Xarid tartib taomillari asosida aniqlanadi
9	Pudrat tashkiloti	Xarid tartib taomillari asosida aniqlanadi
10	Obyektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, quvvati, unumdorligi, ishlab chiqarish dasturi, shuningdek turar-joy yoki umumiy binolar, ularning vazifalari (qavatlar soni, seksiyalar va kvartiralar soni, qabul qilish va sig'im qobiliyati).	Forish tumani "Arishli" MFY Do'stlik mahallasidagi 15-maktab 2-filialini rekonstruksiya qilish (24-o'rinli filial qurish) tarkibi qo'yidagilardan iborat bo'lishi kerak:  1.Maktab ma'muriyati: -Sinf xonasi; -O'qituvchilar xonasi;
11	Arxitektura-qurilish, hajmli-rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binolarni pardoqlashga talablar.	Binolar, xonalar, ularning maydonlarini joylashishi bo'yicha loyihalashda quyidagilarga, ya'ni texnologik rejalashtirishda o'quv xonalarini maqsadiga, funksional hududlashtirishga, tabiiy yorug'lik tushishiga va shamollatirishga e'tibor berish shart. Tashqi pardoqlash ishlari: Fasad-zamonaviy materiallardan foydalangan holda zamonaviy ko'rinishda ishlab chiqish kerak. -Sokol -muzlashga chidamli shtukaturkalash, rangli buyoqlarda bo'yoqlash; -Tashqi devorlarni shtukaturkalash, rangli buyoqlarda bo'yoqlash. - <i>Derazalar- deraza romlari PVXdan bo'lib, bir kamerali oynali, xonani tabiiy shamollatish uchun fortochka yoki derazani murakkab mexanizmli ochish usulida ishlash.</i> - ruxlangan tunika (otsinkovannaya) yasalgan tashqi deraza tokchalari o'rnatilsin; -Tashqi eshiklar ishlatish maqsadlariga qarab tanlansin; Ichki pardoqlash ishlari: - Shift - yo'laklar va xonalar gipsokarton; -sinf xonalari suvoq ishlaridan keyin suvga asoslangan kompozitsiyalar (vodoemulsiya) bilan bo'yash - Devor - suvoqlash, ochiq rangdagi suvga asoslangan kompozitsiyalar (vodoemulsiya) bilan bo'yaladi; -Pol (zamin) - sinf xonalarida yog'ochdan (reychniy); (smeta hujjatida qalinligi aniq belgilash) -plintus MDF yoki yog'ochdan.
12	Obodonlashtirish va kichik arxitektura shakllariga talablar	Ishchi loyihada maktab hududini obodonlashtirish bo'yicha quyidagilar nazarda tutilsin:

		<p>-Maktab hududi chegarasi bo‘ylab metall panjara to‘siqlar o‘rnatish;</p> <p>-maktab hududida irrigatsiya ishlarini amalga oshirish;</p> <p>-Tashqi yorug‘lik tizimini o‘rnatish;</p>
13	<p>Konstruktiv yechimlarga, yuk ko‘tarib turuvchi va tashqi himoya konstruksiyalarga va ularning materiallarga qo‘yiladigan asosiy talablar.</p>	<p>Dizayn va qurilish yechimlari zamonaviy dizayn va qurilish tajribasini hisobga olishi kerak.</p> <p>- Barcha tuzilmalar va materiallar mavjud standartlar va normativlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanishi kerak.</p> <p>Loyihani ishlab chiqishda materiallarga minimal ta‘sirni hisobga olgan holda texnologik yechimlarni qo‘llash kerak.</p> <p>- me‘moriy jihatdan ifodali, texnologik va energiyani tejaydigan zamonaviy dizayn texnologiyalardan foydalansin.</p> <p>Dizayn qarorlarini amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning muqobil energiya manbalaridan foydalanilsin.</p> <p>Loyihada quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak:</p> <p>- poydevor - monolit temir -beton;</p> <p>- konstruktiv sxema – temir betonli karkasli.</p> <p>Tashqi devorlarning qalinligi 380 mm.</p> <p>-bo‘linmalar (peregorodkalar) – metall karkasli g‘ishtdan;</p> <p>- bo‘linmalar (peregorodka)- sanuzel xonalarida - qalinligi 120 mm bo‘lgan mustahkamlangan g‘ishtdan;</p> <p>- zinapoyalar - monolit-beton;</p> <p>-tom qoplamalari – shomollatiladigan yog‘och chordoq (derevyannaya cherdachnaya) ustidan asbestobeton list o‘rnatilsin;</p> <p>-tomni izolyatsiyalash (uteplitel) – penopolistrol qalinligi issiqlik muhandislik hisob kitobiga asoslangan holda olinsin;</p> <p>- issiqlik izolatsiyasi (teploizolyatsiya) – 2 qatlam, qalinligi 50mm bo‘lgan steklovoloknoli plitalar qo‘llanilsin;</p> <p>Yomg‘ir suvlar ketishi- tashqi, polimer qoplamali ruhlangan tunika (otsinkovannaya metall) quvurlardan yasalgan drenaj lotok va drenaj quvurlari bo‘ylab tashkil etilsin;</p>
14	<p>Muxandislik va texnologik asbob-uskunalariga, texnologik jihozlarga qo‘yiladigan talablar. Texnologik asbob-uskunalarining ro‘yxati.</p>	<p>Ta‘minot muxandislik tarmoqlari uchun dizayn yechimlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg‘or texnologiyalari va uskunalarini qo‘llashga qaratilishi kerak.</p> <p>Loyihada quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak:</p> <p>Elektr ta‘minoti:</p> <p>- elektr ta‘minoti ishonchliligi darajasiga ko‘ra – II toifali ;</p> <p>- energiya tejash choralari ko‘rish;</p> <p>- binoning elektr yoritilishini uch tolali mis sim yordamida loyihalash, QMQ 2.01.05-98 va QMQ 2.04.17-98, shuningdek, elektr inshootlarining amaldagi qoidalariga muvofiq, avariya bo‘lmaslik holatini ta‘minlash.</p> <p>Elektr energiyasini hisobga olish uchun quvvatni avtomatik boshqarish va o‘lchash tizimini (ASKUE) ta‘minlash.</p> <p>elektr yoqish moslamasi (vklyuchatel) = 0,90 m, rozetkalarini 0,40 m pol sathidan balandda o‘rnatish.</p> <p>-sinflarga 60x60 sm o‘lchamdagi (LED) yoritgichni (chiroqni) o‘rnatish.</p> <p>Isitish va sovitish:</p> <p>Binoni isitish o‘zining individual qozonxonadan loyihalashtirilishi kerak.</p>

		<p>Radiatorlar – bimetallic.</p> <p>Xonalar derazalarni ochilishi bilan tabiiy va mexanik shamollatiladi.</p> <p>Loyihalashda, QMQ 2.01.18-2000 *, QMQ2.04.05-97 qo'llanma talablariga rioya qiling.</p> <p>Xonadagi havo haroratini amaldagi meyoriy hujjatlar talablariga binoan oling.</p> <p>Suv ta'minoti QMQ 2.04.01-98 va QMQ2.04.02-97 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.</p> <p>Yong'ir suvlari drenaj quvurlarini binoning tashqi devorlari bo'ylab yotqizib, ularning rangi bino fasadi rang sxemalariga muvofiq tuzilishi kerak.</p> <p>Tashqi drenajlar qalinligi kamida 0,5 mm va diametri kamida 100 mm bo'lgan rux tunukalardan yasalgan quvurlardan tayyorlanadi.</p>
15	Loyihalash uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi	Buyurtmachi shartlariga asosan APZ-1.2; topoxarita M 1:500, muhandislik qidiruv ishlari, binoni texnik holatini tekshirish hisoboti, texnik shartlar Loyiha tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan.
16	Atrof muhit tabiatini qo'riqlash va saqlash bo'yicha talablar	Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida Atrof muhitga tasiri bayonoti (AMTB) loyihasi ishlab chiqish.
17	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	Narxlar joriy qiymatlarda, ShnQ 4.01.16-09 "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" talablari asosida belgilanadi.
18	Loyihalashtirilayotgan ob'ekt tarkibi	Loyihalananayotgan maktab hududida o'quv binosi, tashqi xojatxona, yong'inga qarshi suv xavzasi.
19	Qabul qilinadigan loyiha yechimlarida Energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha talablar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi 161 -sonli qaroriga muvofiq, ob'ektning energiya samaradorligi bo'yicha zamonaviy innovatsion echimlarni taqdim etish. energiya tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsion materiallar va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishni ta'minlash.
20	Aholini nogironligi bo'lgan va kam harakatlanuvchi guruhlar hayoti faoliyati sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	ShnQ 2.07.02 -07 talablarida ko'rsatilgan, nogironligi bo'lgan shaxslarning va xarakatlanishi cheklangan isonlarni ob'ektga kirish-chiqishlarini ta'minlash va binoda bo'lishlari vaqtida xarakatlanishi bo'yicha yaratiladigan sharoitlar bo'yicha qo'shimcha talablarni ko'rsatish.
21	Yong'inga qarshi kurash va havfsizligi bo'limini ishlab chiqish bo'yicha talablar	Yong'inni o'chirish amaldagi normativ hujjat ShnK 2.04.09-07 "Yong'indan himoya tizimlari. Avtomatik yong'in signalizatsiyasi va yong'inga qarshi qurilmalari" talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Yong'in xavfsizligi talablari ShnK 2.01-04 ga muvofiq bajarilishi kerak.
22	Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash bo'yicha talablar	Ob'ektning Planshet va dizay albomlarini tayyorlanadi va Qurilish Bosh boshqarmasi bilan kelishiladi va Bayonnomasi olinadi.
23	Qurilish mo'ljallangan muddatlar (yil)	Boshlanishi 2022 yil Tugatilishi 2022 yil

24	Muhandislik-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha talablar, loyihalashning alohida sharoitlari.	Muhandislik-qidiruv ishlari hujjatlari (Muhandislik geologiyasi, topografik o'lchamlar va bosh.) loyiha tashkiloti tomonidan (shartnoma shartlari asosida) bajariladi.
25	Loyihalash va qurilishni o'ziga xos shartlari	Qurilish ob'ektini murakkablik toifasi-II.
26	Qurilishni tashkil etish loyihasini (QTEL) ishlab chiqish	Qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) – to'liq hajmda ShnQ3.01.01 ga muvofiq ishlab chiqilsin.(Proyekt POS).
27	Qurilishda mualliflik nazorati	Bir oyda 4 (to'rt) marotaba mualliflik nazoratini olib borish. Loyiha tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan grafik asosida olib boriladi.Obyektda pudratchi yoki Buyurtmachi tomonidan masala ko'tarilganda, loyihachining ob'ektga borishi zaruriy shart hisoblanadi.
28	Taqdim etiladigan loyiha-smeta hujjatlarining nusxalari soni, bo'limlarining tarkibi va mazmuniga bo'lgan talablar	To'g'rilangan hujjatlarning buyurtmachiga taqdim etiladigan nusxalari soni 4 nusxada (chop etilib, tasdiqlangan va 1 nusxada elektron disk ko'rinishida) topshiriladi.

**Buyurtmachi:**

Jizzax viloyat hokimligi "YBX" IK  
bosh muhandisi:

A.Sariboev

**Foydalanuvchi tashkilot:**

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari:

A.Jaynaqov

**Tayyorladi:**

Jizzax viloyati hokimligi "YBX" IK  
loyiha bo'limi boshlig'i:

M. Aliyev